# O'QUVCHILAR MUVAFFAQIYATIDA OTA-ONALARNING ISHTIROKI.

***Burxanova Sarvinoz Bobur qizi***

*Samarqand Davlat chet tillar institute Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyot (Ingliz tili) 2-kurs, 2305-guruh*

*+998931627113*

*savinozburxanova2005@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o'quvchilar muvaffaqiyatga erishishda ota-onalarning ro'li qanchalik muhimligi, ota-onaning farzandga qay darajada ta'siri qilishi haqida ma'lumotlar keng yoritiladi. Maqolada ota-onalarning bolalar ta'limida faol ishtiroki, ularning qo'llab-quvvatlashi va tarbiyaviy yondashuvlariga qanday hissa qo'shishi yoritiladi. Shuningdek, ota-onalarning farzandlari bilan muloqoti va ularga nisbatan ko'rsatgan e'tiborining ahamiyati ta'kidlangan.*

***Annotation:*** *This article extensively highlights the importance of parental involvement in children's success and the extent of their influence on their child's development. It discusses the active participation of parents in their children's education, their support, and how their upbringing approaches contribute to this process. Additionally, the article emphasizes the significance of parent-child communication and the attention parents provide to their children.*

***Аннотация:*** *В данной статье подробно рассматривается, насколько важна роль родителей в достижении успеха учащихся и в какой степени влияние родителей сказывается на развитии ребенка. В статье обсуждается активное участие родителей в образовании детей, их поддержка и вклад в процесс воспитательного подхода. Кроме того, подчеркивается значение общения*

*между родителями и детьми, а также внимание, которое родители уделяют своим детям.*

***Kalit so'zlar:*** *farzandning qo'llab-quvvatlanilishi, muvaffaqiyatga erishish, ota-onaning roli, oldinga harakat qilish, qiyin vaziyatlar, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi muloqot.*

***Keywords:*** *the support of the child, achieving success, the role of the parents, moving forward, difficul situations, communication between parents and child.*

***Ключевые слова:*** *поддержка ребенка, достижение успеха, роль родителей, движение вперед, трудные ситуации, общение между родителями и ребенком.*

## Kirish.

Farzand uchun birinchi ustoz ota-onasi hisoblanadi. Tug'ilgan onidan boshlab unga yurishni, gapirishni hattoki ularni oldinga intilishlari uchun doim qo'llab-quvvatlagan ota-onasi bo'ladi va farzand har doim ularning ko'magiga va biror ishni boshlashdan oldin ular doim yonida tirgak bo'lib turishlariga muhtoj bo'ladi. Ota-ona tomonidan farzandning ta'lim olishi, yaxshi tarbiyalanishi va qo'llab-quvvatlanishi ta'minlanilishi lozim. Farzandning yoshi ulg'aygan sari birma-bir muhim qadamlar qo'yishni boshlaydi. Birinchi navbatda maktabga borib, hayotidagi yangi bosqichga o'tadi. Bu vaqtda o'qituvchilar bilan bir vaqtda ota-onaning bolaga munosabati ya'ni uni maktabga moslashtirishi va ta'lim olishda ularga ko'makchi bo'lishi eng muhim bosqich hisoblanadi. O'quvchining ota-ona tomonidan doim nazoratda bo'lishi, uni yaxshi ta'lim egallashiga yordam beradi. Shuningdek, ota-onaning ishtiroki nafaqat bolalarining ta'limini qo'llab-quvvatlash, balki maktab bilan yaqin aloqada bo'lishni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning maktabdagi faol ishtiroki, masalan, o'qituvchilar bilan muloqot qilish va uyda o'quv ishlariga yordam berish, bolaning o'qish motivatsiyasini oshiradi va yaxshi natijalarga olib keladi.

Bazida o'quvchi ya'ni farzand muvaffaqiyatsizlika uchrashi mumkin. Shunday vaziyatda ota-ona o'quvchiga yaxshi mativatir bo'lishi va o'quvchini o'z maqsadi yo'lida davom etishiga yordamchi bo'lishi lozim. Agarda farzand o'ziga bo'lgan ishonchni va atrofidagi odamlarning unga bo'lgan ishonchini va har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlanilishini his qilsa, u ta'lim jarayonida va boshqa har qanday vaziyatdan chiqa oladi.

Ota-onalar bilan o'quvchining o'rtasidagi muloqot muvaffaqiyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan muntazam muloqot nafaqat bolalar o'qishiga yordam beradi, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Masalan, ota-onalar o'z farzandlari bilan muntazam suhbatlar o'tkazib, ularning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini yaxshilashda yordam beradi, chunki bu o'zaro aloqalar bolalar uchun kuchli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini yaratadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Texas A&M University-Commerce (tamuc). https://faculty.tamuc.edu/justice/classes/documents/RoleofParent
2. Universal Journal of Educational Research va ERIC (Education Resources Information Center)